



## DAVLAT TILINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Abdurazakova Xolida Jumakulovna**

*Toshkent viloyati Angren shahar*

*33-maktab davlat tili o'qituvchisi*


**Annotatsiya:** *Ta'lim uzoq davom etish jarayoni bo'lib, uning sifati darsda qo'llanilgan metodlarga bog'liq. Darsning mazmunli o'tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o'qituvchining mahorati, bilim darajasini oshiradi. Ushbu maqolada davlat tili darslarida tavsiya etilgan metodlardan namunalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *interfaol, innovatsion texnologiya, pedagogik mahorat, charxpalak, imkoniyat, metod, texnologiya, malaka, ko'nikma.*

*Davlat tili darslarida zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan talablardan biri qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bunda nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish asosida ma'lum ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlar darajasini baholash o'qituvchidan ta'lim jarayoniga yangicha yondashishni talab etadi. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda interfaol metodlardan keng foydalanilmoqda. Bu metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o'rganilayotgan mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o'z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g'oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag'batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.*

*Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar- "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqqimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabilardan darsda samarali foydalanish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash sahnasi "Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi" metodlarini, yangini yangilash "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang" texnologiyalarini, mavzuni aniqlash "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Konseptual jadval", "Nilufar guli" kabi grafik tashkil etuvchilar hamda "Tushunchalar tahlili", "T-jadval", "Rezyume", "Kungaboqar", "Charxpalak" metodlarini, uyga vazifa berishda "FSMU", "Klaster".*

*Davlat tili darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan "Ha... yo'q", "Ta'rif egasini top", "Men kimman?", "Domino" kabi didaktik o'yinlarni darsda qo'llash mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilarning o'zini erkin tutadi, bilimni namoyon etgisi keladi va o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni*





*o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim.*

*O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishish, bunda moddiy texnologiya o'quvchilarning bilimni yuksaltiradi. Davlat tili darsida qo'llaniladigan bir necha metodlarni ko'rib chiqamiz.*

**Charxpalak.** *Uch texnologiya o'quvchilarni o'rganilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ridan-to'g'ri javob berish va o'z-o'zini ko'rsatishga qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchi bilimlarini oshirishga yordam beradi. Bu usulni qo'llashdan maqsad o'qishni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda olish, fikrlarni bayon eta olish, yakka va erkinlikda ishlash, boshqa fikriga ko'ra, ko'p ma'lumotlarini yaratish. Uch texnologiya davlat tili darslaridan keyin yoki biror narsa-bir bo'lim tugallanganda o'tilgan mavzuning o'ziga xos qay darajada o'zlashtirilganlikni tuzatish, takrorlash, sifat uchun mo'ljallangan.*

**“Tanlash ixtiyoriy, tajriba” metodi.** *Bunda o'quvchilarga darslikdagi mashg'ulotning shartida qo'yilgan topshiriqlarni o'zi ixtiyoriy rang-barang badiiy asar, boshqa darsliklardagi matn, materiallar asosida yaratilgan materiallar kerak. O'quvchilarda mustaqil o'qib o'rganish, o'zining harakat va xususiyatlarini namoyon qila olish ko'rinishi shakllanadi.*

**“Imkoniyat” metodida** *chorak yakunida o'zlashtirishi yuqori bo'lgan o'quvchilarga o'rganilgan mavzular bo'yicha javobi tayyor va javobi yoziladigan testlar tuzib kelish topshiriladi. Bu vazifani a'lo darajada bajargan o'quvchilar yakuniy nazorat ishlarini topshirishdan ozod qilinadi. Test tuzgan o'quvchilarga test yechgan o'quvchida shunga qarab havas shakllanadi:*

- o'z fikrini yozma tarzda ishlab, aniq, tushunarli bayon qilish;*
- mavzudan kelib chiqib savollarga javob berish va o'zi ham savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish;*
- axborotlarni izlab topish, saralash, tanlash va tahlil qilish;*
- bilimni mustaqil ravshanlashtirib borish va uni amaliyotda qo'llay olish kabilar.*

**“5 savolga 5 javob” metodi.** *Ushbu usuldan o'zbek tili darslarida “Qo'shma gaplar” mavzusi o'rganilayotganda foydalanish mumkin. Bunda tarqatma material yoki ekranda o'quvchilar e'tiboriga test javoblari shaklidagi gaplar havola qilinadi:*

- A. Kim mehnatni sevsa, uning qadri baland bo'ladi.*
- B. Muhabbat eski narsa, ammo har bir yurak uni yangilaydi.*
- D. Orzular buyukdir, umrlar qisqa.*
- E. Biz ko'rgan, eshitgan, lekin e'tibor bermagan voqealarga san'atkorona baho beradi.*

**“Davom ettir” metodi.** *Ushbu metod o'quvchilarni tez fikrlashga o'rgatish bilan birga, esda saqlashlarini ham rivojlantiradi, darslik bilan ishlash ko'nikmasini*







shakllantiradi. "Davom ettir" metodi uchun topshiriq tashkil qilish: o'qituvchi o'tilgan mavzuga oid ma'lumotlarning bosh so'zlaridan beradi va o'quvchilar ushbu so'zlarning davomchilarini taqdim etgan matn yoki materiallar asar parchasidan topib, jumlaning to'ldiradi.

Yuqoridagi metodlar o'quvchilarning fanga bo'lgan resurslarini olish qobiliyatiga, o'zlarining fikrlarini erkin bayon eta olish, atrofida gilarni hurmat qilish, o'zining fikrini himoya qila olishga o'rgatadi. Eng muhimi davlat tili darslarida metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortib boradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Rafiyev A. , G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. , "Sharq", 2013 yil.
2. Erkaboyeva NQ Adabiyot fanidan savol-javoblar to'plami. T. "Navro'z", 2018 yil.
3. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyani muvofiqlashtirish va rejalashtirish. T. , "Iqtisodiyot", 2012 y.
4. "Umumta'lim fanlari metodikasi" jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018 yil.
5. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 1-12 sonlar, 2018 yil.

